

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**Choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**5-sinf**  
**II variant**

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyot  
(B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

1. (B 1,3 ball) So‘zlar bilan berilgan sonlarni raqamlar bilan yozing va to‘g‘ri javobni mos keltiring:

1. to‘rt ming uch yuz to‘rt	A. 646
2. olti yuz qirq olti	B. 6046
3. olti ming qirq olti	C. 434
	D. 4304

- A) 1 – D; 2 – B; 3 – A.  
B) 1 – D; 2 – A; 3 – B.  
C) 1 – C; 2 – A; 3 – B.  
D) 1 – C; 2 – B; 3 – A.
2. (B 1,3 ball) Yulduzcha (\*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan raqamlar yig‘indisini toping.

$$482 * 24 > 482345$$

- A) 39 B) 30 C) 38 D) 41
3. (B 1,3 ball) Hisoblang:  $617 \cdot 35$   
A) 21535 B) 21255 C) 20545 D) 21595
4. (B 1,3 ball) 394 sonining kubi qanday raqam bilan tugaydi?  
A) 2 B) 6 C) 4 D) 8
5. (Q 1,6 ball) ABC uchburchakda  $AB = 5 \text{ dm}$ ,  $BC = 38 \text{ cm}$ ,  $AC = 400 \text{ mm}$  bo‘lsa, uning perimetrini toping.  
A) 128 dm B) 13 dm C) 128 cm D) 1380 mm

6. (Q 1,6 ball) 3240 kg ni tonna, sentner va kilogrammlarda ifodalang. (t-tonna, q-sentner)  
A) 3 t 20 q 40 kg B) 3 t 2 q 40 kg C) 3 t 34 q D) 3 t 200 q 40 kg
7. (Q 1,6 ball) 3648 sonini o'nlar xonasigacha yaxlitlanganda a, yuzlar xonasigacha yaxlitlanganda esa b bo'lsin. a – b ning qiymatini toping.  
A) 50 B) 48 C) 52 D) a dan b ni ayirib bo'lmaydi
8. (Q 1,6 ball) Hisoblang:  $545 + 211 + 889 + 55$   
A) 1700 B) 1850 C) 1800 D) 1750
9. (Q 1,6 ball) ABCD to'rtburchakning perimetri 112 cm. AB tomon 40 cm, BC tomon AB tomondan 7 cm qisqa, lekin CD tomondan 10 cm uzun. AD tomon uzunligini toping.  
A) 18 cm B) 13 cm C) 24 cm D) 16 cm
10. (Q 1,6 ball) Duradgor uch kunda buyurtmani bajardi. Birinchi kuni u 13 ta, ikkinchi kuni birinchi kundani a ta ko'p va uchinchi kuni esa ikkinchi kundani 4 ta ko'p stul yasadi. Duradgor uch kunda jami nechta stul yasaganini aniqlovchi harfli ifoda tuzing.  
A) 43 B)  $36 + 2a$  C)  $39 + 2a$  D)  $43 + 2a$
11. (Q 1,6 ball)  $(17 - 6b) \cdot (8b - 6)$  ifoda qiymatini  $b = 2$  bo'lganda hisoblang.  
A) 100 B) 45 C) 50 D) 75
12. (Q 1,6 ball) Uchta sonning yig'indisi 22450 ga teng. Sonlardan biri eng katta to'rt xonali son, ikkinchisi eng kichik besh xonali son bilan eng katta uch xonali sonlarning yig'indisiga teng. Uchinchi sonni toping.  
A) 1003 B) 1452 C) 203 D) 1752
13. (Q 1,6 ball) Bo'linuvchi 9 marta kamaytirilsa, bo'luvchi 3 marta orttirilsa, bo'linma qanday o'zgaradi?  
A) 3 marta kamayadi;  
B) 27 marta kamayadi;  
C) 6 marta kamayadi;  
D) 12 marta kamayadi;
14. (Q 1,6 ball) 3871849 soni 127 sonidan necha marta katta?  
A) 30477 B) 3487 C) 30487 D) 31387
15. (Q 1,6 ball) 304 sonini qanday songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 43 ga qoldiq esa 3 ga teng bo'ladi?  
A) 7 B) 9 C) 12 D) 17

16. (Q 1,6 ball) Har bir harfiy ifodani soddalashtiring va har biriga mos javobni toping.

1. $29 + a + 71$	A. $100 - a$
2. $141 - a - 41$	B. $a - 100$
3. $a - 55 - 45$	C. $100 + a$
	D. $a - 50$

- A) 1 – C; 2 – A; 3 – B.  
 B) 1 – C; 2 – B; 3 – D.  
 C) 1 – A; 2 – B; 3 – D.  
 D) 1 – A; 2 – C; 3 – B.

17. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching:

$$7y + 36 + 5y = 192$$

- A) 14 B) 17 C) 23 D) 13

18. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$(2467 - 56 : 4 - 13) \cdot 3$$

- A) 7170 B) 7320 C) 7420 D) 7390

19. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$(890 - 22176 : 72) \cdot 54$$

- A) 32668 B) 33768 C) 31428 D) 34668

20. (Q 1,6 ball) Sayohatchi bir shahardan ikkinchisiga bormoqchi. U oldin avtomobilda 75 km/h tezlik bilan 4 soat yo‘l bosdi. So‘ng piyoda 3 soat 4 km/h tezlik bilan yurdi. Shunda ikkinchi shahargacha yana 3 km yo‘l qoldi. Bu shaharlar orasidagi masofa qancha?

- A) 315 km B) 322 km C) 304 km D) 384 km

21. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$8^2 + 7^2 - 3^3$$

- A) 64 B) 86 C) 66 D) 21

22. (Q 1,6 ball) Sinflararo futbol musobaqasining jadvali berilgan (6-A:6-B → 2:3 kabi):

Sinf	6-A	6-B	6-D	6-E	6-F
6-A		2:3	1:2	0:0	2:1
6-B	3:2		5:0	0:1	4:2
6-D	2:1	0:5		1:1	2:0
6-E	0:0	1:0	1:1		2:2
6-F	1:2	2:4	0:2	2:2	

Qaysi jamoa 4 ochko to‘plagan? (Izoh: g‘alabaga 3 ochko, durangga 1 ochko, mag‘lubiyatga 0 ochko beriladi)

- A) 6-E B) 6-D C) 6-A D) 6-B

**23. (M 2 ball)** A sonni B songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 3, qoldiq esa 8 ga teng bo'ladi. A sonni C songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 4, qoldiq esa 3 ga teng bo'ladi. Agar B – bir xonali son bo'lsa,  $A + B + C$  ning qiymatini toping.

A) 32 B) 42 C) 38 D) 52

**24. (M 2 ball)** Ikki xonali son berilgan. Bu ikki xonali sonning chap tomoniga, so'ngra o'ng tomoniga 6 raqami yozilib, ikkita son hosil qilindi. Hosil bo'lgan bu ikkita uch xonali sonlar ayirmasi 441 ga teng bo'ldi. Berilgan ikki xonali son uchun quyidagi mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1) Bu ikki xonali son 20 dan katta;

2) Bu ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi 8 ga teng;

3) Bu ikki xonali sonning raqamlari ko'paytmasi toq son bo'ladi;

A) noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri

B) noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri

C) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri

D) to'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri

**25. (M 2 ball)** 21 ta bir xil sig'imli idishning 7 tasiga to'ldirib, 7 tasiga yarim qilib asal solingan, 7 tasi esa bo'sh. Uch nafar mijozga asalni va idishlarni teng bo'lib berish kerak. Bunda har bir mijoz teng miqdorda asal va teng miqdorda idish olishi kerak. Mijozlar eng kami bilan nechta yarim qilib asal solingan idishdan olishlari mumkin?

A) 2 ta B) 1 ta C) 5 ta D) 3 ta

**26. (Bilish 2,5 ball)** Qaysi javobda Noto'g'ri yozilgan so'z berilgan?

A) hijjalamoq B) jangovor C) afv D) hashar

**27. (Bilish 2,5 ball)** Nuqtalar o'rnida bo'g'iz tovushi yoziladigan so'zlarni toping.

1) ...onqizi; 2) xayr- e... son; 3) hoyu ... avas; 4) mav ... um; 5) ma ... fiy

A) 1,2,3,4,5 B) 2,3,4 C) 1,3,5 D) 1,5

**28. (Bilish 2,5 ball)** Qaysi so'zda urg'u oxirgi bo'g'inga tushMAYdi?

A) onamga B) borganda C) kitob D) direktor

**29. (Qo'llash 4, 5 ball)** Qaysi gapdagi so'zda tovush ortish hodisasi ro'y bergan?

A) Bu orada qiziq ishlar bo'lib o'tdi.

B) Son-sanoqni bildiruvchi so'zlar sanoq sonlardir.

C) Inson organizmida har bir a'zoning o'rni bor.

D) Kuzda ba'zi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi.

**30. (Qo'llash 4, 5 ball)** Osti marmar, usti marmar, ichida bir kelin o'ynar. Ushbu gap haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni toping.

1. Ot so'z turkumi ishtirok etgan.

2. Sifat so'z turkumi ishtirok etgan.

3. Fe'l so'z turkumi ishtirok etgan.

4. Tovush almashinish hodisasi kuzatiladi.

5. Tovush tushish hodisasi kuzatiladi

A) 1,2,4 B) 1,3,4 C) 1,3,5 D) 2,3,4

**31. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Tarkibi faqat yopiq bo‘g‘inlardan iborat bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Zamonlarda 2. Dehqon 3. Sabzavot 4. Toshlar 5. Dengiz 6. Farzand  
A) 2,4,6 B) 1,2,3,5 C) 2,4,5,6 D) 3,4,5

**32. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Quyidagi juftliklardan qaysi biri xato izohlangan?

- A) Artish – po‘stlog‘idan ajratish, archish – tozalash  
B) Ato – in‘om, ota – farzandli er kishi  
C) Shoh – podsho, shox – daraxt shoxi  
D) Bog‘ – mevali daraxtlar, boq – qara, o‘stir

**33. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Mulohazalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Mulohaza
1. Shirinso‘z, samimiy, rostgo‘y sifatlari – ijobiy sifat.
2. Belgini bildiruvchi mustaqil so‘z turkumiga olmosh deyiladi.
3. Tilning tovush tizimini o‘rganuvchi bo‘lim – orfoepiya.
4. Adl – adolat Adil – tik
5. r, l, z undoshlari jarangli, sirg‘aluvchi undoshlar hisoblanadi.

- A) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4-noto‘g‘ri, 5-to‘g‘ri  
B) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4-to‘g‘ri, 5-noto‘g‘ri  
C) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4-to‘g‘ri, 5-to‘g‘ri  
D) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4-noto‘g‘ri, 5-to‘g‘ri

**34. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Tarkibi faqat jarangli undoshlaridan iborat bo‘lgan so‘zni toping.

- A) mamlakat B) bog‘bon C) tilshunos D) fantastika

**35. (Mulohaza 5,5 ball)** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing. Matn mazmuniga mos xulosa keltirilgan qatorni aniqlang!

### Reja

O‘rgimchak uyning hamma burchaklarini aylanib chiqib, ov qilishga eng qulay joy deb eshik qulfini tanlabdi va o‘zicha: “Bu yer mustahkam, ichi keng, mana bu teshik og‘ziga to‘r to‘qisam mendan yashirincha hech narsa uyga kirolmaydi. Agar o‘zinga biror xavf tug‘ilsa, mana bu temir qo‘rg‘onga yashirinaman”, – deb ishga tushibdi. Shu payt zinadan oyoq tovushlari eshitilibdi. O‘rgimchak o‘zini panaga olibdi. Uyning egasi pillapoyalardan ko‘tarilib, eshikning qulfiga kalitni solib burabdi.

- A) Birovga chuqur qazisang, unga o‘zing tushasan.  
B) Bir kalning hiylasi qirq kishini charchatar.  
C) Bekorchidan bezib qoch, chaqimchidan – ko‘chib.  
D) Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht

**36. (Bilish 2,5 ball)** Qaysi janrda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo‘lib, ibratli fikr aytiladi?

- A) Masal B) Maqol C) Ertak D) Matal

**37. (Bilish 2,5 ball)** Topishmoq yana qanday nomlar bilan yuritiladi?

1) chiston; 2) topmacha; 3) matal; 4) masal; 5) jumboq.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 5      C) 2, 3, 4, 5      D) 2, 3, 4

**38. (Bilish 2,5 ball)** Masal janri haqidagi to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

A) Hayvonlar orqali insonlarni tasvirlovchi hikoyalar bo‘lib, faqat nasriy shaklda yoziladi.

B) Majoziy xarakterdagi qisqa janr bo‘lib, faqat nasriy shaklda yoziladi.

C) Faqat hayvonlar haqidagi hikoyalardan iborat janr bo‘lib, she‘riy shaklda yoziladi.

D) Majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo‘lib, nasriy yoki she‘riy shaklda yoziladi.

**39. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati” haqidagi hadisda Alloh yuborgan hidoyatni o‘rganib o‘zgalarga ham o‘rgatadigan, ammo o‘zi amal qilmaydigan fosiq kishilar qanday yerga qiyoslangan?

A) To‘plangan suvdan o‘ziga ham o‘zgalarga ham nafi tegmaydigan qatqaloq, tekis yerga.

B) Suvni o‘zida tutib qolmaydigan, ko‘katni ham ko‘kartirmaydigan tekis yerga.

C) Yomg‘irni o‘ziga singdiradigan, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradigan unumdor yerga.

D) Suvni emmasdan, o‘zida to‘playdigan, o‘zi manfaat ko‘rmaydigan ammo boshqalar manfaatlanadigan qattiq yerga.

**40. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Aka-uka Grimmlarga hamda “Botir tikuvchi” ertagiga xos bo‘lmagan mulohaza keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Grimmlar ertaklarning ko‘pchiligini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba‘zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib olishgan.

B) Ertak qahramoni o‘ziga yangi kamar bichib, katta-katta harflar bilan unga: “Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon!” deb yozib qo‘yadi.

C) Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar bo‘lib, bu “Botir tikuvchi” ertagida ham aks etgan.

D) Ertakda qirol tikuvchini changalzor o‘rmondagi ikki qaroqchini mag‘lub qilish uchun yuboradi.

**41. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Uch og‘a-ini botirlar” ertagiga xos bo‘lmagan mulohaza keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Ertakda uch og‘a-ini botirlar burchaklari yo‘q mamlakatdagi g‘aroyib voqealarga guvoh bo‘lishadi.

B) Ertakda podshoh va uning vaziri botirlarning suhbatini yashirincha tinglaydilar.

C) Ertakdagi botirlar sherni, ajdarni va podshoh xazinasiga o‘g‘irlikka tushgan qaroqchilarni yo‘q qilishadi.

D) Ertakda yaxshilik qilib, qilgan yaxshiligi evaziga jazolangan obraz haqidagi hikoya keltirilgan.

**42. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Ezopning qaysi masali so‘ngida kimki o‘ziga yaxshilik qilganlarga yomonlik sog‘insa, u, albatta, Xudoning qahriga yo‘liqadi degan xulosa chiqadi?

- A) “Kiyik bilan tokzor                      B) “Eshak bilan baqalar”  
C) “Bo‘ri bilan Laylak”                      D) “Burgut, zag‘cha, cho‘pon”

**43. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Moslashtiring.

1. Sahoba	a. payg‘ambarimiz so‘zlarining qachon, qanday sharoitda, kimlar huzurida aytilganligi haqidagi hujjati
2. Sanad	b. payg‘ambarimizni ko‘rgan va u kishi bilan suhbatda bo‘lgan izdoshlari.
3. Roviyy	c. Qur‘oni karimdagi oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tatbiq etadi.
4. Muhaddis	d. ma‘lumot beruvchi, aytuvchi.
5. Musnad	e. “hadis biluvchi”, “hadis aytuvchi”
	g. roviylar ro‘yxati

- A) 1-b, 2-a, 3-g, 4-e, 5-c                      B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c, 5-g  
C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-e, 5-g                      D) 1-b, 2-d, 3-c, 4-e, 5-g

**44. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Chiston haqida bildirilgan fikrlardan to‘g‘ri javoblarni tanlang.

1. Arabiy so‘z bo‘lib, topishmoq, jumboq ma‘nosini anglatadi.
2. Kichik lirik janri hisoblanib, “yakka, yolg‘iz” degan ma‘nolarni anglatadi.
3. An‘anaviy va zamonaviy shaklda yaratiladi.
4. Narsa-hodisalar ko‘chma ma‘noda tasvirlanadi.
5. Fard, bayt, qit‘a, ruboiy va g‘azal shaklida yoziladi.
6. Ko‘proq ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo‘ladi.

- A) 1,2,3,5,6                      B) 3,4,5,6                      C) 2,3,4,5                      D) 1,3,4,5

**45. (Mulohaza 5,5 ball)** “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida to‘ti hikoyasining keltirilish sababi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Otaning nasihatiga amal qilmagan o‘g‘illar boshiga tushgan voqea bilan to‘tining o‘zboshimchaligi oqibatida sodir bo‘lgan voqeaning bog‘liqligi sabab keltirilgan.  
B) To‘tining yengiltakligi sabab sodir bo‘lgan voqea bilan, xazinaga o‘g‘irlikka tushgan qaroqchilarning boshiga tushgan voqeaning o‘xshashligi sabab keltirilgan.  
C) Hasadgo‘y vazirning botirlarga qilgan yomonligi bilan bir to‘ti (to‘tining qarindoshi)ning hasadgo‘yligi haqidagi voqeaning bog‘liqligi sabab.  
D) To‘tining boshiga tushgan fojia bilan Kenja botirning podshohni qutqarib, evaziga jazolanganligi haqidagi voqea o‘rtasidagi o‘xshashlik sabab keltirilgan.



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**